



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 11-iyun, № 118 (9013)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## INVESTITSİYALAR FAQAT IQTISODIY TARAQQIYOTNING EMAS, BALKI TINCHLIK VA BARQARORLIKNING KAFOLATIDIR

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi  
ana shunday asosiy mavzu hamda ezgu g'oya ostida  
bo'lib o'tmoqda.



Poytaxtimizda Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik sarmoyaviy muloqot maydoniga aylangan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi o'z ishini boshladi. Mazkur yirik anjumanda Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, arab davlatlari hamda

Yevropa, Osiyo va Afrika mintaqalaridan qariyb 3 ming xorijiy mehmonlar, jami 7,5 mingdan ortiq delegatlar ishtirok etayotgani uning nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolatdir.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TO'RTINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli forum ishtirokchilari!  
Xonimlar va janoblar!  
Aziz mehmonlar!

Avvalo, sizlarni — hamkor davlatlarimizning yuqori martabali vakillari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, biznes olamining yirik namoyandalari to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida chin qalbidan samimiy qutlayman.

Tadbirimizda qatnashayotgan Bolgariya Prezidenti Rumen Radev Janobi Oliyarlari, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso Janobi

Oliyarlari, Qozog'iston Bosh vaziri Oljas Bektenov Janobi Oliyarlari, Qirg'iziston Hukumati raisi Adilbek Kasimiyev Janobi Oliyarlari, Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda Janobi Oliyarlari, Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov Janobi Oliyarlari, Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisi o'rinbosari Aleksandr Novak Janoblari, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o'rinbosari Nokergul Ataguliyev Janoblari ko'rib turganimdan g'oyat xursandman.

Shuningdek, Rossiya, Xitoy, Amerika


Qo'shma Shtatlari, arab davlatlari hamda Yevropa, Osiyo va Afrika mintaqalaridan kelgan nufuzli delegatsiyalarni ham chin dildan qutlayman.

Biz bilan yaqindan hamkorlik qilayotgan moliyaviy institutlar rahbarlari — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso xonim va Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef xonimga alohida minnatdorlik izhor etaman.



## O'ZBEKISTON VA BOLGARIYA MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi.



10-iyun kuni Ko'ksaroy qarorgohida Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Qarorgoh oldidagi maydonda ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tortdi.

Prezidentimiz oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radevning rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston bilan Bolgariya o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan. So'nggi yillarda oliy va yuqori darajadagi ikki tomonlama aloqalar faollashdi.

Davlatimiz rahbari Bolgariya yetakchisini samimiy qutlab, so'nggi 17 yildagi birinchi sammit tarixiy ahamiyatga ega ekanini, O'zbekiston — Bolgariya do'stlik va sheriklik munosabatlarini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqishini ta'kidladi.

Parlamentlar, iqtisodiyot va tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi hamkorlik faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'smoqda, kooperatsiyaning yangi yo'nalishlari va loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Gumanitar almashinuvlar amalga oshirilmoqda, Buxoro va Varna, Samarqand va Plovdiv o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatilgan.

Ko'p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida tashqi siyosat idoralari o'rtasida tizimli aloqalarni yo'lga qo'yish muhimligi qayd etildi.

Savdoni, eng avvalo, to'qimachilik, oziq-ovqat, kimyo va farmatsevtika mahsulotlari, metall buyumlar va texnologik uskunalar yetkazib berishni kengaytirish orqali

ko'paytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zaro savdoning o'sishini rag'batlantirish maqsadida poytaxtlarda savdo uylari ochish, laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish va imtiyozli kredit liniyalari ajratish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Agrosanoat majmui va oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, geologiya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va IT, turizm sohasida qo'shma loyihalarni ilgari surish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi.

Samarali yer usti va havo transport yo'laklarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, tomonlar ikki davlat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish imkoniyatini ko'rib chiqishga kelishib oldilar.

Mehnat resurslari sohasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun Sofiya shahrida O'zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligining vakolatxonasini ochish masalasi ko'rib chiqildi.



## O'ZBEKISTON PREZIDENTI XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari Aleksandr Novak, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari Nokergul Ataguliyevni qabul qildi.



Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov bilan uchrashuv avvalida O'zbekiston yetakchisiga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Iqtisodiy kooperatsiya yili doirasida birgalikda samarali ishlar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, qo'shma Investitsiya



kompaniyasi ko'magida amalga oshirilayotgan kooperatsiya loyihalari qizg'in pallaga kirgan. Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etmoqda. Erishilgan kelishuvlar ijrosini nazorat qilish va

bo'lajak oliy darajadagi uchrashuv uchun yangi tashabbuslarni ilgari surish maqsadida hukumatlar darajasida yaqindan amaliy hamkorlikni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TO'RTINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Bugungi forumda 7,5 mingdan ortiq delegatlar, jumladan, 100 ga yaqin davlatlardan salkam 3 ming nafar xorijiy mehmonlar ishtirok etmoqda. Biz buni, avvalambor, mamlakatimizga bo'lgan hurmat, o'zaro ishonch va yaqin hamkorlikning chinakam ifodasi sifatida qabul qilamiz.

O'zbekiston zaminiga xush kelibsiz, qadri do'stlar!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!  
Bugungi dunyo katta sinovlarni boshidan kechirmoqda. Global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchaymoqda, geosiyosiy jarayonlar ko'z o'ngimizda shiddat bilan o'zgarib bormoqda.

Jahonda qurollanish poygasi yana avj olmoqda. Yirik mamlakatlarning harbiy xarajatlari 2010-yildagiga nisbatan bir yarim barobar ortib, 2,5 trillion dollarga yetdi. Iqtisodiy inqiroz asoratlari, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari esa ketma-ket uch yil davomida pasaymoqda.

Ming afsuski, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun eng dolzarb muammolar – oziq-ovqat xavfsizligi, kambag'allik, iqlim o'zgarishlari kabi masalalarga e'tibor kamaymoqda. Dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga bo'lgan umumiy ishonchni tiklash har qachongidan ham muhim.

Biz Ukraina bilan bog'liq vaziyatni faqat diplomatik yo'llar bilan hal etish zarur, deb hisoblaymiz va Istanbulda bo'lib o'tayotgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarni olqishlaymiz.

Shu bilan birga, ko'pdan buyon cho'zilayotgan G'azo fojiasiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. XXI asrda ko'z o'ngimizda ko'plab begunoh insonlarning nobud bo'layotganini hech nima bilan oqlab bo'lmaydi. Bu muammoing yagona yechimi – nizoni xalqaro huquq me'yorlari va qabul qilingan rezolyutsiyalar asosida adolatlari hal qilishdir. Falastin xalqi o'z mustaqil davlatiga ega bo'lishga haqlidir.

Global kun tartibidagi yana bir masala – bu qo'shni Afg'onistonning tinch va barqaror rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. Bu davlatning amaldagi hukumati bilan xalqaro maydonda konstruktiv muloqot olib borish, uning yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik har qachongidan ham muhim. Zero, mazkur mamlakatdagi osoyishtalik va iqtisodiy rivojlanish yun-atrofdagi barcha mintaqalarning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun zarur omildir.

Men hozir ta'kidlab o'tgan muammolar bo'yicha barcha shirik davlatlarimizni ochiq va keng ko'lami xalqaro hamkorlikka chaqiramiz. Chunki forumning asosiy mavzusi bo'lgan **investitsiyalar – faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir!**

Keling, birgalikda shunday investitsiya muhitini yarataylikki, u daromad keltirish bilan birga

inson qadrini ulug'laydigan, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylansin!

Aziz mehmonlar!  
Hozirgi qiyin sharoitda biz O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga asosiy e'tibor qarataymiz.

Yalpi ichki mahsulotimiz sakkiz yilda 2 barobar ko'paydi. 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

O'tgan yili investitsiya hajmi 35 milliard dollarga, eksportimiz 27 milliard dollarga yetgani – to'rt yildan buyon o'tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining ham amaliy natijasidir.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham o'zining munosib aksini topmoqda. "Iqtisodiy erkinlik indeksi" dagi o'rnimiz so'nggi besh yilda 48 pog'onaga yuqori ko'tarildi. Garvardning "Iqtisodiyot murakkabligi indeksi" dagi o'rnimiz 28 pog'onaga yaxshilandi. O'tgan oyda nufuzli "S&P" agentligi O'zbekistonning suveren reytingi prognozini "barqaror" dan "ijobiy" ga oshirdi. Garvardning "Iqtisodiyot murakkabligi indeksi" dagi o'rnimiz 28 pog'onaga yaxshilandi. O'tgan oyda nufuzli "S&P" agentligi O'zbekistonning suveren reytingi prognozini "barqaror" dan "ijobiy" ga oshirdi.

Bugun dunyo iqtisodiyoti yangi davr va o'zgarishlar ostonasida turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Bu esa barqaror rivojlanish yo'lidani borayotgan davlatlarni quyidagi to'rtta yo'nalishda hamkorlikda ishlashga undamoqda.

**Birinchi**, "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tish. Biz iqtisodiyotimizni barqaror energiya resurslari bilan ta'minlash uchun aynan "yashil" energetikani rivojlantirishga qattiq bel bog'laganmiz.

O'tgan qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko'rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, "yashil" energiya ulushi 54 foizga yetadi.

Shuningdek, elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 milliard dollar jalb qilamiz.

Bu borada joriy yilda Samarqandda, kelgusi yildan yana 8 ta hududda elektr tarmoqlarini xususiy sheriklikka beramiz.

Bundan tashqari, ilk bor "yashil" sertifikat va uglerod birliklari savdosini boshladik. Shu yil global uglerod bozorlariga qo'shilib, "Yashil O'zbekiston" iqlim investitsiyalari platformasini yaratamiz.

**Ikkinchi**, raqamli texnologiya va sun'iy intellekt iqtisodiyotning "drayveri" ga aylanmoqda. Mamlakatimizda shu yilning o'zida IT eksporti 1 milliard dollarga yetadi. 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 5 karra oshirish uchun salohiyatimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli.

Bu ishlarni xalqaro darajada e'tirof etilib, Sun'iy intellektga tayyorlik bo'yicha xalqaro indeksda bir yilda 17 pog'onaga ko'tarildi.

Kelgusi yil "Bulutli texnologiyalar" milliy

platformasi ishga tushadi. Yaqin besh yilda xususiy investorlar bilan birga quvvati 500 megavattndan ziyod 20 ta "data markaz" barpo etamiz.

Shuningdek, boy tariximiz, azaliy qadriyatlarimiz hamda yangi kreativ g'oyalarni mujassam etgan sun'iy intellektning milliy modelini ishlab chiqamiz. Bu tizim samaradorligini ta'minlash uchun "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihisini boshladik.

Ishonchim komil, sizlar bilan birgalikda O'zbekistonni nufuzli IT va Fintech xabiga aylantiramiz.

**Uchinchi**, bugungi sharoitda moliyaviy tizim va texnologiyalar keskin o'zgarimoqda.

Biz yaqinda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki bilan birga O'zbekiston moliya sektorini ilk bor kompleks baholashdan o'tkazdik. Ular bank, moliya, sug'urta, kapital bozorida islohotlarimizni to'liq qo'llab-quvvatladik.

Bu sohalarini keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqish maqsadida O'zbekistonda Moliyaviy barqarorlik kengashi tashkil etiladi, Markaziy bankda kibernetika va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushiriladi.

Sug'urta tizimida ham katta islohotlarni boshladik. Milliy qayta sug'urtalash kompaniyasi va Global qayta sug'urtalash raqamli platformasi tashkil etildi.

Startlar uchun muqobil moliyaviy instrument – ventchurlar bizda tez rivojlanib boryapti. Misol uchun, o'tgan yili 2 ta startap kompaniyamizning qiymati ilk bor 1 milliard dollardan oshdi. Bunday kompaniyalarni albatta ko'paytiramiz.

Shu bois "Muqobil investitsiya jamg'armalari to'g'risida" gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Kelgusi besh yilda ventchur va boshqa muqobil sarmoyalar hajmini 1 milliard dollarga olib chiqamiz.

**Yana bir yo'nalish**. "To'rtinchi sanoat inqilobi" "texnologik mineralar" ga talabni bir necha karra ko'paytirmoqda.

O'zbekistonda volfram, molibden, magniy, litiy, grafit, vanadiy, titan va boshqa mineralarning katta zaxirasi aniqlangan. Umuman, yer osti boyliklarimizning salohiyati 3 trillion dollarga baholanganmoqda.

Mintaqamizning mineralardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish xabiga aylinishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bu borada Toshkent va Samarqand viloyatlarida "Kelajak metallari texnopark" ni bunyod etmoqdamiz.

Shu o'rinda bir tashabbusni ilgari surmoqchiman: bu sohada geologiya-qidiruv ishlaridan boshlab, tayyor mahsulot zanjirini yo'lga qo'ygan investorlarga o'n yil davomida renta solig'i qaytarib beriladi.

Ishonchim komil, sizlar bilan uzoq muddatli samarali aloqalarimiz aytib o'tilgan barcha yo'nalishlarda o'zaro manfaatli biznes hamkorlikka

aylanadi.

Hurmatli investorlar!

Biz "Yangi O'zbekiston – investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati" degan tamoyilni amaliy natijalarga aylantirish maqsadida barcha choralarini ko'ryapmiz.

**Eng avvalo, bir narsaga e'tiboringizni qaratmoqchiman: global ishlab chiqarish zanjirlarida har bir davlat uchun teng sharoitni ta'minlaydigan ishonchli qoidalar bo'lishi shart va zarur.**

Hech shubhasiz, bu borada Jahon savdo tashkilotining alohida o'rni bor. Shu bois kelgusi yilda ushbu Tashkilotning a'zosiga aylanish bo'yicha oldimizga maqsad qo'yganimiz va bu borada hamkorlarimiz bilan faol ishlashaymiz. Buning uchun o'nlab qonun, yuzlab standartlarni xalqaro talablarga moslashtirdik va bu ishlarni shu yil to'liq yakuniga yetkazamiz.

**Ikkinchi**, mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlovchi "milliy rejim" joriy qilindi, davlat organlari bilan munosabatga kirishishda "yagona darcha" tamoyili tatbiq etilishi belgilandi, investitsiya faoliyatini ortiqcha tekshiruvlardan kafolati himoyalash tizimi yaratildi.

Bular orqali 2030-yilga borib, O'zbekistonning kredit reytingini "investment" darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo'yganimiz.

**Uchinchi**, biz davlat kompaniyalarini xususiy lashtirishda ularni yurtimiz farovonligiga xizmat qiluvchi yirik aktivlarga aylantirish yo'lini tanlaganimiz.

Shu bois 18 ta yirik kompaniya va banklardagi qariyb 2 milliard dollarlik davlat ulushini o'zida birlashtirgan "Milliy investitsiya jamg'armasi" tashkil etildi. Jamg'arma boshqaruviga nufuzli "Franklin Templeton" kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilning o'zida jamg'armaning aksiyalar paketi xalqaro IPO ga chiqariladi.

Shuningdek, professional konsultantlar jalb qilinib, ikki yilda 29 ta yirik davlat kompaniyasi xususiy lashtirildi.

**To'rtinchi**, biz transport va logistika sohasini iqtisodiyotimizning qon tomiri sifatida ko'ramiz.

Shu bois bu sohaga ham xususiy kapitalni faol jalb qilmoqdamiz. Birgina misol, Samarqand, Namangan, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlari davlat-xususiy sheriklik asosida salohiyatli investorlar boshqaruviga berildi.

Urganch aeroporti boshqaruviga dunyoning yetakchi "Inchon" kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilda Nukus, Termiz, Farg'ona, Navoiy aeroportlari bo'yicha ham tenderlar o'tkazamiz.

Yana bir muhim yo'nalish – poytaxtimizda yashab va ishlayotgan aholi soni 5 milliondan oshdi. Shu bois 2 million aholiga mo'ljallangan

"Yangi Toshkent" shahrini barpo etib, poytaxtni megapolisga aylantiramiz.

Bu yerda yiliga 20 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega aeroport, temir yo'l va avtomobil transportini qamrab olgan "multimodal xab" quriladi. Yirik savdo komplekslari va moliya markazlari qad ko'taradi.

Ushbu mega loyihani birgalikda amalga oshirish uchun investorlar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarni taklif qilamiz.

**Beshinchi**, so'nggi yillarda qo'shnilarimiz bilan yo'lga qo'yilgan ochiq va do'stona siyosat natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi hamkorlik muhiti shakllandi.

Bugun ushbu davlatlarning hukumat rahbarlari forumda ishtirok etayotgani ham so'zimizning yaqqol isbotidir.

E'tibor bering, sakkiz yilda qo'shnilarimiz bilan tovar aylanmasi hajmi 3,5 barobardan ziyod oshib, qariyb 13 milliard dollarga yetdi.

Katta investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurishni boshladik, yirik energetika va infratuzilma loyihalari tayyorlash bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Umuman, biz Markaziy Osiyoda "Investitsiya va savdo uchun yaxlit hudud konsepsiyasi" ni ilgari surishni taklif qilamiz.

Shu o'rinda xalqaro tashkilotlarga murojaat qilmoqchiman: mintaqaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun yangi moliyaviy mexanizmlarni yo'lga qo'yish yaqqo keldi. Birgalikda harakat qilsak, Markaziy Osiyoni tinchlik va taraqqiyot makoniga aylantiramiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Bugungi forum yangi, kengaytirilgan formatda o'tkazilmoqda. Uning doirasida ilk bor ixtisoslashgan ko'rgazma tashkil etilib, unda O'zbekiston kompaniyalari o'z loyihalari va qo'shma tashabbuslari bilan ishtirok etmoqda.

Bir masalaga alohida urg'u bermoqchiman: **biz uchun investitsiya – faqatgina moliyaviy manba emas. Bu – texnologiya, bilim, malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo'shilish, ya'ni haqiqiy taraqqiyot demakdir.**

O'zbekiston mana shunday egru g'oyalar bilan keladigan xorijiy investorlarga barcha sharoitlarni yaratib beradi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va buni kafolatlaydi.

Yurtimizda sizlar uchun barcha eshiklar doimo ochiq.

**Eng muhimi – faoliyatingizni himoya qiladigan qonunlar bor, muloqotga ochiq davlat va hamkorlikka tayyor mehnatkash xalqimiz bor.**

Bugungi anjumanda ishtirok etayotgan, mamlakatimizga mehmon bo'lib kelgan har bir investor, xorijiy hukumat va xalqaro tashkilotlar vakillariga yana bir bor chin dildan minnatdorlik bildiraman.

## O'ZBEKISTON VA BOLGARIYA MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

Gumanitar aloqalarni, shu jumladan, akademik va ilmiy almashinuvlarni faollashtirish, joriy yilda Andijon shahrida yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlarining uchrashuvini o'tkazish tashabbuslari qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, kelgusi yilda O'zbekiston va Bolgariya madaniyati hamda kinosi haftaligini tashkil etishga kelishib olindi.

Erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan tizimli nazoratni ta'minlash maqsadida tomonlar qo'shma "yo'l xaritasi" ni qabul qilish va Hukumatlararo komissiya hamraisilari darajasini oshirish, uning ishiga hududlar va yirik kompaniyalar rahbarlarini jalb qilishga ahdlashildi.

Uchrashuv yakunida Prezident Rumen Radev Prezident Shavkat Mirziyoyevni o'zi uchun qulay vaqtida javob tashrif bilan Bolgariyaga borishga taklif etdi.

Toshkent shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish to'g'risida qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Yetakchilar hozirida ikki tomonlama hujjatlar, jumladan, Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi hamda Toshkent va Sofiya shaharlari o'rtasida sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi bitim almashildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Ko'ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo'ldi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rumen Radev xalqarolik do'stligi va hamkorligi, ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochishga mustahkam intilishning ifodasi sifatida Faxriy mehmonlar xiyobonida daraxt ekdilar.

Shu kuni oliy martabali mehmon "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Rumen Radev ushbu muazzam bog'ning bunyod etilish tarixi bilan tanishdi. Monumentda aks ettirilgan buyuk alomalar, qahramon sarkarda va jahongirlar, jaded bobolarimiz haqida so'zlab berildi.

Delegatsiya a'zolari "Yangi O'zbekiston" majmuasining g'oyaviy va me'moriy yechimlariga e'tibor qaratdi. Bu yerda bog' – noyob daraxt va gul-chechaklar, amfiteatr, favvoralar uyg'unligi e'tirof etildi.

Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radevning O'zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

**Ziyodulla JONIBEKOV, O'ZA muxbiri.**

## INVESTITSIYALAR FAQAT IQTISODIY TARAQQIYOTNING EMAS, BALKI TINCHLIK VA BARQARORLIKNING KAFOLATIDIR



Bu galgi forumda, jumladan, Bolgariya Prezidenti Rumen Radev, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso, Qozog'iston Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg'iz Respublikasi Hukumati raisi Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Ozarbayjon Bosh vaziri Aliy Asadov, Rossiya Hukumati raisi o'rinbosari Aleksandr Novak, Turkmaniston Vazirlar Mahkaması raisi o'rinbosari Nokergul Ataguliyev, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef hamda ko'plab taniqli investorlar, xalqaro ekspertlar qatnashyapti. Shubhasiz, bu yangi O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga, yuksak savdo-sarmoyaviy salohiyatiga bo'lgan mustahkam ishonch va yaqin hamkorlikning chinakam ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida IV Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zlad.

Davlatimiz rahbari global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi murakkab geosiyosiy jarayonlarning jahon iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri tendensiyalarini hisobga olib, hamkorlikning asosiy tamoyillari hamda O'zbekiston savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy dasturining muhim yo'nalishlari bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi. Prezident forumdagi nutqini dunyodagi bugungi vaziyatning

qisqacha tahlilidan boshladi. Hozirgi kunda geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan o'zgarib, global xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar kuchayib borayotgani ta'kidlandi.

O'zbekiston rahbari mintaqaviy mojarolar va muammolarni faqat diplomatik vositalar bilan, xalqaro huquq normalari va prinsiplari asosida BMT rezolyutsiyalariga muvofiq hal etish muhimligini ta'kidladi.

– Men hozir ta'kidlab o'tgan muammolar bo'yicha barcha shirik davlatlarimizni ochiq va keng ko'lami xalqaro hamkorlikka chaqiramiz. Chunki forumning asosiy mavzusi bo'lgan investitsiyalar – faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir, – dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston yetakchisi nafaqat daromad keltiradigan, balki inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlari va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladigan investitsiya muhitini yaratishga chaqirdi.

Ta'kidlanganidek, iqtisodiy inqiroz asoratlari, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli oxirgi uch yilda jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari muttasil pasaymoqda. Ana shunday murakkab bir sharoitda O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik ta'minlanayotgani uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirmoqda. Binobarin, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi oxirgi sakkiz yil ichida 2 barobar ko'paygan, o'tgan yili investitsiya hajmi 35 mlrd. dollarga, eksport 27 mlrd.

dollarga yetgani fikrimiz tasdig'idir.

Bunday ijobiy natijalar qo'lga kiritilishi, davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining amaliy natijasi hamdir.

Darhaqiqat, poytaxtimiz mezbonlik qilgan mazzur forumning o'tgan uch yillik faoliyati davomida umumiy qiymati 44 mlrd. dollarlik 357 ta investitsiya shartnomasi imzolangan. Shundan 57 tasi bugungi kunga qadar to'liq amalga oshirilgan bo'lsa, yana 263 tasi qurilish va loyihalashtirish bosqichida ekanligi forumning tomonlar uchun o'ta samarali anjumanga aylanganini anglatadi.

Tahillarga qaraganda eng ko'p investitsiyaviy loyihalar Saudiya Arabistoni, Xitoy, Rossiya, BAA, Turkiya, Germaniya, Fransiya ulushiga to'g'ri keladi. Jahonning yetakchi xalqaro investitorlari, yirik moliya institutlari hamda biznes doiralari vakillarini bir joyga jamlagan navbatdagi forumda bundan-da yuqori natijalarga erishilishi kutilmoqda. Chunki xalqaro hamjamiyat e'tiboriga iqtisodiyotning energetika, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, foydali qazilmalari qazib olish, raqamli texnologiyalar va boshqa strategik muhim sohalariga oid umumiy qiymati 30 mlrd. dollardan oshiq bo'lgan investitsiya loyihalari taqdim etilmoqda.

Xalqaro ekspertlarning e'tirof etishicha, O'zbekiston keyingi yillarda Markaziy Osiyodagi eng jozibador investitsiya manzillaridan biriga aylandi. Shubhasiz, bunda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbus bilan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish raqobatbardosh yangi O'zbekistonni barpo etishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Nega deganda, investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan liberal iqtisodiy siyosat yuritilib, ishlab chiqarish va sanoat yo'nalishlari diversifikatsiya qilindi, ishlabarmon va investitorlarning qonuniy huquq va manfaatlari himoyasi mustahkamlandi, asosiy, soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklar taqdim etildi. Bu, o'z navbatida, jahon hamjamiyati tomonidan

tan olinib, O'zbekistonga bo'lgan ishonch va qiziqishning tobora oshishiga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda so'zimiz isboti o'laroq so'nggi besh yil ichida O'zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksi 48 pog'onaga, Garvardning Iqtisodiyot murakkabligi indeksi 28 pog'onaga ko'tarilgani, yaqinda nufuzli "S&P" agentligi O'zbekistonning suveren reytingi bo'yicha prognozini "Barqaror" dan "Ijobiy" ga ko'targanini keltirish joiz.

Davlatimiz rahbari nutqida alohida ta'kidlab aytganidek, investitsiya sohasidagi islohotlar "Yangi O'zbekiston – investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati" degan tamoyil asosida yangi bosqichga olib chiqiladi. Endilikda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay ishlabarmonlik muhiti yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlovchi "milliy rejim" joriy qilindi. Davlat organlari bilan munosabatga kirishishda "yagona darcha" tamoyili tatbiq etilib, investitsiya faoliyatini ortiqcha tekshiruvlardan kafolati himoyalash tizimi yaratildi.

Sarmoyaviy hamkorlikni mustahkamlashda uzoq xorijiy davlatlar bilan birga, yaqin qo'shni mamlakatlar o'rtasida ochiq va do'stona aloqalar o'rnatilayotgani O'zbekiston investitsiya siyosatidagi yangi tendensiya sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa Markaziy Osiyoda samarali hamkorlik muhiti shakllanishiga katta turki bo'lavotir. Isbotmi? Qo'shnilarimiz bilan tovar aylanmasi hajmi oxirgi sakkiz yilda 3,5 barobardan ziyod oshib, qariyb 13 mlrd. dollarga yetdi. Bundan tashqari, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurishga kirishilgan, energetika va infratuzilma sohalarida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani oqilona siyosat mahsul, albatta.

Forumda davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda "Investitsiya va savdo uchun yaxlit hudud konsepsiyasi" ni ilgari surishni taklif qildi. Ushbu tashabbus forumning yalpi majlisida jam bo'lganlar tomonidan davomli olqishlar bilan qarshi olindi.

Yalpi majlisda so'zga chiqqan chet ellik mehmonlar hamda moliyaviy

hamkorlar yangi O'zbekistonda iqtisodiy natijalarini yuqori baholab, mamlakatimiz bilan ustuvor tarmoqlarda investitsiyaviy aloqalarni yanada kengaytirish bo'yicha o'z taklif va tashabbuslarini bildirdi.

Ta'kidlash joizki, IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi yanada keng ko'lami, kengaytirilgan shaklda o'tkazilmoqda. Uning doirasida ilk bor O'zbekiston kompaniyalarining loyihalari va qo'shma tashabbuslari namoyish etilayotgan ixtisoslashtirilgan moliy ko'rgazma tashkil etildi.

</

# EZGU MAQSADLARIMIZGA HAMOHANG G'ALABA

Bir tur oldin jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritib, tarixiy natijani qayd etgan futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi 10-turda poytaxtimizdagi muhtasham "Bunyodkor" stadionida Qatar terma jamoasini qabul qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev futbolchilarimiz quvonchiga sherik bo'lish va ularni ulkan natija bilan tabriklash uchun stadionga tashrif buyirdi. Davlatimiz rahbari bilan o'yinni Bolgariya Prezidenti Rumen Radev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumat rahbarlari birgalikda kuzatdi.



## Faxr

Shu kunlarda milliy sportimiz solnomasiga oltin harflar bilan bitilgan bunday yorqin natija yurtimizdagi millionlab futbol muxlislari, xalqimizning necha yillik orzusi edi. Qutlug' zafar ayyomida ko'p millatli O'zbekiston xalqi futbolchilari bilan haqli ravishda faxrlanmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lami.

Ta'kidlash kerakki, terma jamoamiz a'zolari kuchli raqobat ostida, keskin va shiddatli kurashlarda o'tgan saralash o'yinlarida zarur ochkolarni jamg'arib, jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgani yangi O'zbekiston yoshlari yuksak maralarini egallashga qodir ekanini yana bir bor isbotladi.

Mazkur ulkan g'alaba mamlakatimizda keyingi yillarda sportga, jumladan, uning eng ommiyaviy turi bo'lgan futbolga berilayotgan ulkan e'tiborning yana bir amaliy natijasi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrli.

Endi bevosita uchrashuvga to'xtalsak, bahs davomida raqibning nafas olishiga deyarli yo'l qo'ymagan vakillarimiz yirik hisobda g'alaba qozonishdi – 3:0. Birinchi bo'limning dastlabki daqiqalaridanoq futbolchilarimiz qat'iyatli ancha shohirib qo'yib, ketma-ket hujumlar uyushtirishdi. Bellashuvdagi hisob 28-daqiqaga kelib ochildi. O'yinni asosiy tarkibida boshlagan Azizbek Turg'unboev o'zining ajoyib kuchli zarbasi bilan to'pni darvozaga "mixlab" qo'ydi. Shundan so'ng tashabbusni to'liq o'z qo'lga olgan futbolchilarimiz Qatar terma jamoasi posbonining hushyorligini bir necha marta sinovdan o'tkazdi. 2-bo'limda ham hujumlarini to'xtatmagan Temur Kapadze shogirdlari raqib darvozasini yana ikki bor ishg'ol qildi. Zaxiradan o'yinga qo'shilgan Jamshid Iskanderov 86-daqiqada ajoyib uzatma bilan terma jamoamiz sardori Eldor Shomurodovni qulay vaziyatga olib chiqdi. Eldor esa bundan unumli foydalanib, oradagi farqni ikkita yetkazib

qo'ydi. Shuningdek, o'yinning asosiy bo'lim so'nggi daqiqalarida maydonga tushgan Igor Sergeev burchak zarbasidan yo'llangan to'pni boshi bilan darvozaga kiritdi, yakuniy natija – 3:0.

Shu tariqa jahon chempionati Osiyo mintaqasining 3-saralash bosqichini 21 ochko bilan yakunlagan O'zbekiston terma jamoasi "A" guruhida 2-o'rinni egalladi.

Uchrashuvni stadionda kuzatgan 32 mingdan ziyod tomoshabinlar o'yindan keyin futbolchilarimizni taqdirlash marosimiga guvoh bo'ldi. Prezidentimiz yashil maydonga tushib, sportchilar va delegatsiya a'zolarini Vatanimiz tarixida birinchi marta jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgani, yosh avlodni sportga mehr va milliy g'urur ruhida tarbiyalashga qo'shgan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirledi.

Shuningdek, tadbirda ularga BYD mashinalari sovg'a qilindi. Bayram bayramga ulanib ketib, muazzam stadion uzra mushakbozlik, dronlar shousi namoyish etildi. Futbolchilarimiz yuzida cheksiz quvonch balq etib turardi.

– Hammani g'alaba bilan tabriklayman. O'yinimiz ham, natija ham yaxshi ko'rinish oldi. Xalqimizni jahon chempionatiga chiqqanimiz bilan yana bir bor muborakbod etaman, – dedi Timur Kapadze o'yindan keyin o'tkazilgan matbuot anjumanida.

T. Kapadze matbuot anjumanida uchrashuvning eng yaxshi futbolchisi deb topilgan Azizbek Turg'unboev hamrohlik qildi.

– Barchani chin qalbidan tabriklayman. Bizga ishonch bildirgan va qo'llab-quvvatlagan, shuningdek, g'alabamizga sherik bo'lganlarga rahmat aytaman, – dedi A. Turg'unboev.

Saralash bahslarida o'zining ishonchli harakatlari bilan ajralib turgan darvozabonimiz O'tkirbek Yusupov o'yindan keyin quyidagi fikrlari bildirib o'tdi:

– Prezidentimizdan yuksak unvonni qabul qilib olganim hayotimdagi eng quvonchli, esda qolarli voqea bo'ldi. Davlatimiz rahbari bizga o'z minnatdorligini bildirganida quvonchdan boshim ko'kka yetdi.

Shuningdek, Saudiya Arabistonining "Al Feyha" jamoasida legioner bo'lib to'p surayotgan Otabek Shukurov ham o'z taassurotlari bilan bo'lishdi:

– Avvalambor, juda ham xursandim. Bu natijalarga erishishda, albatta, hurmatli Yurtboshimizning futbolga e'tibori muhim ahamiyat kasb etdi, deb bilaman. Prezidentimiz tomonidan futbol rivojiga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, tizimning to'g'ri yo'lga qo'yilgani sababli qator yutuqlar qo'lga kiritilyapti. Biz bu kabi zafarli odimlarni davom ettirishdan umidvormiz.

Eslatib o'tamiz, butun dunyo kutayotgan jahon chempionati kelasi yilning 11-iyun – 19-iyul kunlari bo'lib o'tadi. Unda ilk marotaba dunyoning 48 ta terma jamoasi g'oliblik uchun kurash olib boradi.

Futbol bo'yicha jahonning eng nufuzli



Хасан ПАЙДОВЕВ олган суратлар.

musobaqasida O'zbekiston milliy terma jamoasining ishtirok etishi nafaqat xalqimizning sportdagi ulkan yutug'i bo'ldi, balki dunyoda o'z o'miga ega bo'lib borayotgan mamlakatimizning dovrug'ini, obro'-e'tiborini yanada oshiradi. Terma jamoamiz qatnashgan har bir bahsda davlatimiz madhiyasi yangrab, jahonga bo'yalayotgan O'zbekistonning bo'y-bastini, kuchu qudratini takror-takror namoyon qiladi. Bu esa azaliy orzu-istaklarimizga, ezgu maqsadlarimizga hamohangdir.

Sunnatilla ISLOMOV,  
Sardor POYONOV  
("Xalq so'zi").

# O'ZBEKISTON PREZIDENTI XORIJIIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARINI QABUL QILDI

Shu ma'noda, Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi va ikki mamlakat hududlari forumining yuqori natijadorligini ta'minlash zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov davlatimiz rahbariga Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlar doirasida O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Tovar ayirboshlash barqaror o'tib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Avtosanoat, elektrotexnika, to'qimachilik, metallurgiya, farmatsevtika, qurilish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zaro savdoni ko'paytirish va ustuvor tarmoqlarda, shu jumladan, hududlar darajasida sanoat kooperatsiyasining uzoq muddatli dasturini shakllantirish bo'yicha ikki mamlakat hukumatlari tomonidan muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko'rilishi muhim ekani qayd etildi.

Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev davlatimiz rahbariga Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik va keng qamrovi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo hajmini

oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Energetika va transport kommunikatsiyalaridagi yirik mintaqaviy loyihalarni, shu jumladan, Qambarota GES-1 va "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'li qurilishini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yilda o'tkaziladigan Hukumatlararo komissiya va Hududlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishlarini samarali tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda davlatimiz rahbariga Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston – Tojikiston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi doirasida yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ko'p qirrali hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va yul tashish hajmi ortmoqda, sanoat, energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Samarali hududlararo aloqalar va faol madaniy-gumanitar almashinuv yo'lga qo'yilgan.

Sheriklikning yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish, tovar ayirboshlashni ko'paytirish bo'yicha ta'sirchan choralarini ishlab chiqish, kooperatsiya va chegaraoldi hamkorlik loyihalarini faol ilgari surish muhim ekani ta'kidlandi.

Rossiya Federatsiyasi Hukumati

Raisingning o'rinbosari Aleksandr Novak davlatimiz rahbariga Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi hamda forum muvaffaqiyatli o'tayotgani bilan tabriklandi.

O'tgan yili may oyida Rossiya yetakchisining O'zbekistonga davlat tashrifi va oliy darajadagi boshqa muloqotlar davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Energetika sohasidagi o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish, neft-gaz tarmoqidagi qo'shma loyihalarni jadallashtirish, tinch atom sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisingning o'rinbosari Nokerguliyev Ataguliyev davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguliyev Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-kommunikatsiya, energetika, suv xo'jaligi sohaslarida keng ko'lami hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak Hududlar forumi hamda qator qo'shma ishblarimonlik va madaniy tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko'rish muhim ekani ta'kidlandi.

O'ZA.

# XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM PLATFORMASI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev bilan uchrashdi.

## Uchrashuv

O'zbekiston parlamenti yuqori palatasi rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, Bolgariya Prezidentining tashrifi ikki tomonning o'zaro manfaatli sheriklikni mustahkamlash va chuqurlashtirishga intilishini tasdiqlashini ta'kidladi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston – Bolgariya munosabatlari 28 ta ikki tomonlama hujjatni o'z ichiga olgan mustahkam shartnomaviy-huquqiy asosda izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

O'z navbatida, Bolgariya Prezidenti Rumen Radev O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy rivoji hamda xalqaro investitsiyaviy hamkorlik uchun muhim platforma ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Muloqot davomida parlamentlararo munosabatlarni faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada parlamentlararo muloqotning o'rni va ahamiyatiga urg'u berilib, Bolgariya Prezidentining Oliy Majlis Senatiga tashrifi parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni faollashtirishga kuchli turki bo'lishi qayd etildi.

Tomonlar ikki mamlakat parlamentlari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, shu jumladan, palatalar va tegishli qo'mitalar rahbarlari darajasida muntazam uchrashuvlar o'tkazish, parlamentlararo do'stlik guruhlarining qo'shma rejalarini ishlab chiqish, shuningdek, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish lozimligi haqida yakdil fikr bildirdi.

"Xalq so'zi".

# O'ZBEKISTON MINTAQAVIY SARMOYAVIY MARKAZ SIFATIDAGI MAQOMINI MUSTAHKAMLAMOQDA

Poytaxtimizda IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi (TXIF – 2025) ochildi. Bu nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqamizdagi muhim iqtisodiy voqealardan biri bo'lib, biznes, hukumat va xalqaro moliya institutlari vakillari o'rtasidagi nufuzli muloqot maydoniga aylandi.

Forumda 7,5 mingdan ortiq delegatlar, 100 ga yaqin davlatlardan salkam 3 ming xorijiy mehmonlar, yirik xalqaro kompaniyalar, investitsiya fondlari, moliya institutlari rahbarlari, shuningdek, rasmiy delegatsiyalar va hukumat vakillari ishtirok etmoqda.

## Intervyu

Anjuman mehmonlari orasida iqtisodiyot va savdo vazirlari, korporatsiyalar va banklar rahbarlari, barqaror rivojlanish bo'yicha ekspertlar, shuningdek, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa global tuzilmalar vakillari bor.

Ishirokchilarni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qutladi. U 10-iyun kungi nutqida "Forumning asosiy mavzusi bo'lgan investitsiyalar – faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir", deya alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek, yangi O'zbekistonni mintaqaviy sarmoyaviy markazga aylantirishni belgilab berdi.

Ishirokchilarning fikricha, TXIF nafaqat investitsiya shartnomalarini tuzish va yangi loyihalarni taqdim etish maydonchasi, balki O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirishning muhim ko'rsatkichiga aylandi.

Forum doirasida ishtirokchilar O'zbekistonda biznes yuritish istiqbollari faol muhokama qilmoqda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga baho bermoqda va kelgusidagi iqtisodiy o'zgarishlar haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashmoqda.

Kubanichbek OMURALIYEV,  
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi:

– Toshkentda o'tkazilayotgan to'rtinchi forum

alohida ahamiyatga ega. TDT doirasida O'zbekiston tashkilotning norasmiy poytaxtiga aylangan, degan tushuncha mavjud. Ishirokchilar tarkibining o'zi ham tadbir ko'lami va uning nufuzi qanchalik oshib borayotganidan guvohlik beradi. Bu nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining jozibadorligi oshib borayotganidan dalolatdir. Chunki bu yerda ko'plab mamlakatlarning davlat va hukumat rahbarlari, jumladan, tashkilotimiz a'zolari ham ishtirok etmoqda. Ishirokchilar orasida qo'shni Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, shuningdek, TDTga a'zo boshqa mamlakatlarning yetakchi investorlari ham bor.

Aniq natijalar haqida gapirganda, e'tiboringizni muhim bir raqamga qaratmoqchiman. Birinchi forumdanoq qayta tiklanadigan energiya sohasiga ko'rfaz arab davlatlaridan O'zbekistonga 10 mird. dollardan ortiq investitsiya jalb qilingan edi. Ishonch bilan ayt olamanki, bu ko'rsatkichlar yildan-yilga ortib bormoqda, mintaqadagi asosiy sarmoyaviy maydon sifatida forumning samaradorligi va jozibadorligi ortib bormoqda.

Bunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning izchil siyosati alohida o'rinni tutadi. Uning rahnamoligidagi mamlakatimizdagi investitsiyaviy muhitni sezilarli darajada yaxshilaydigan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayapti.

Toyyo KLAAR,  
Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi rahbari, elchi:

– IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekiston uchun ham, Markaziy Osiyo uchun ham katta ahamiyatga ega. U keng doiradagi ishtirokchilarni birlashtiradi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan forum davomida Yevropa Ittifoqining ikki oliy martabali delegatsiyasi mamlakatimizdagi bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, tadbir doirasida Slovakiya va Bolgariya uchun ikkita alohida biznes forumi o'tkazilmoqda, bu esa Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston islohotlar jarayonida uzoq yo'lni bosib o'tdi. Albatta, hali ko'p ish qilish kerak. Masalan, ertaga YEXHT keyingi islohotlar bo'yicha o'zining "Yo'l xaritasi"ni taqdim etadi. O'ylaymanki, bu tahlilni sinchiklab o'rganish va undan iloji boricha samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ko'plab yutuqlarga erishildi. Endi islohotlarni amalga oshirishda maqsadli olg'a intilishda davom etish muhim.

Pyer-Pol ANTONISSENS,  
EDF kompaniyasining Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha direktori:

– Men ushbu forumda uchinchi marta ishtirok etyapman. U allaqachon Yevropa, Osiyo, Amerika, umuman olganda, butun dunyo investorlari uchun muhim uchrashuv maydoniga aylanib ulgurdi. Bugun Toshkent mintaqaning investitsion imkoniyatlarini o'rganiladigan jozibador nuqta sifatida ko'rilmog'uda. Bu, haqiqatan

ham, katta qiziqish uyg'otadi.

Forumning aynan O'zbekistonda o'tkazilishi juda muhim. Biz bu voqeani intizorlik bilan kutdik. Fransiyalik ko'plab hamkasblarimiz ishtirok etish uchun bu yerga kelishdi. EDF kompaniyasining bosh direktori ham tashrif buyurishi kutilmoqda. Bu forumga bo'lgan xalqaro e'tiborning yorqin namunasidir.

Bundan tashqari, tadbirning yuqori saviyada tashkil etilganligini ham alohida ta'kidlayotqimman. Tadbir nafaqat ishtirokchilarning sessiyalarga qatnashishi, balki samarali muloqot qilishi uchun ham qulay tarzda tashkil etilgan. Xususan, o'zaro uchrashuvlar o'tkazish uchun ham ko'plab sharoitlar yaratilgan bo'lib, bu ayniqsa, samarali biznes networking uchun nihoyatda muhim. Umuman olganda, barcha tashkiliy masalalar juda oqilona o'ylangan.

Biz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlardan yaxshi xabardormiz. Ushbu o'zgarishlarsiz kompaniyamiz bu yerda ishlash imkoniyatini ko'rib chiqmagan bo'lardi.

O'zbekiston rahbariyatining islohotlarni boshlash va izchil amalga oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak qadrlaymiz.

Leo DOXERTI,  
"International Hospitals Group"  
kompaniyasining katta maslahatchisi (Buyuk Britaniya):

– Ushbu tadbirda ishtirok etayotganimizdan nihoyatda mamnunuzim. O'ylashimcha, ushbu forum Buyuk Britaniya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning naqadar mustahkam ekanligini yaqqol namoyish etmoqda. Biz tashkilotchilik darajasidan juda ham hayratdamiz – barchasi yuqori, professional darajada tashkil etilgan. Investorlar juda iliq kutib olindi. Menimcha, bu O'zbekiston iqtisodiyoti bera olishi mumkin bo'lgan keng ko'lami va manfaatli imkoniyatlarni – xoh sog'liqni saqlash, xoh ta'lim

va boshqa sohalarda bo'lsin, investorlarga taqdim etishning ajoyib yo'lidir.

Biz, shuningdek, tashkiliy qo'mitaning ishini yuqori baholaymiz. Ishonchim komilki, oldinda bizni juda samarali kunlar kutmoqda. Bu tadbir O'zbekiston iqtisodiyotining hayratlanarli o'sishini va mamlakat hukumati tomonidan, ayniqsa, xususiy sektorda amalga oshirilayotgan islohotlarning puxta o'ylanganligini namoyish etyapti. Xalqaro investorlar O'zbekistonga sarmoya kiritib, investitsiyalarining qaytishiga va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga ishonishlari muhimdir. Ushbu forum esa tashrif buyurganlarga aynan shunday ishonchni taqdim etmoqda.

Shteffen RIXTER,  
"Linde Group" kompaniyasi Yaqin Sharq/  
Turkiya klasteri rahbari va boshqaruvchi  
direktori (Germaniya):

– Ushbu forum butun dunyo sanoat yetakchilarini O'zbekistonda jamlash va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun noyob imkoniyat deb bilaman. O'zbekistonning so'nggi yillarda erishgan yutuqlari, haqiqatan ham, hayratlanarli va biz "Linde" kompaniyasi va jarayonning bir qismi bo'lishdan juda xursandim.

2016-yildan beri amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ma'muriy tizimni optimallashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini izchillashtirish va infratuzilmani yaxshilashga faol e'tibor qaratilayotgani biz, xorijiy investorlar uchun juda muhim bo'lgan jihattir.

Ishonchim komilki, bu kabi islohotlarning uzluksiz davom ettirilishi mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalb qilishda ulkan hissa qo'shadi.

"Dunyo" AA.

# XALQIMIZ MANFAATLARI USTUVORLIGINING HUQUQIY ASOSI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini rivojlantirish, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini takomillashtirish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash va uning davomiyligini soddalashtirish, muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirish va mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berish, hakamlik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish, sudning mustaqilligi va sudyalar daxlsizligini ta'minlash choralarini kuchaytirish, inson salomatligi uchun xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

### Mediatsiya tartib-taomillarini qo'llash uchun rag'batlantiruvchi normalar

Majlisda dastlab nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Keyingi yillarda jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashda, ularning muammolarini hal etishda jahonning rivojlangan davlatlarida yuqori samara berayotgan nizolarni sudgacha hal etishning zamonaviy yo'nalishlarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotda xorijiy investorlarni jalb qilishni rag'batlantirish uchun ham nizolarni sudgacha yoki sudning har qanday bosqichida nizolashayotgan taraflarning o'zaro kelishuviga va maqbul yechimga kelishiga erishishni ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur qonun loyihasida mediatsiya tartib-taomillarini qo'llash uchun rag'batlantiruvchi normalar, mediatorlarga oid talablar va mediativ kelishuvlarni ijro etish qoidalari nizolarni muqobil hal etish mexanizmlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlarning taklif va tavsiyalari asosida undagi normalar maromiga yetkazilgani qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi joriy etiladi

Deputatlar tomonidan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddamamodda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tahlillar amaldagi "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonunni yanada takomillashtirish va bu borada zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishni taqozo etmoqda.

Qonun loyihasida jamiyat nafaqat litsenziya, balki boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar va xabardor qilish tartibida faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkinligi, shuningdek, jamiyatlarining filial va vakolatxonalarini ochish tartiblari belgilanyapti. Bundan tashqari, jamiyat boshqaruvida minoritar ishtirokchilar huquqlarini himoya qilishga doir hamda jamiyat majoritar ishtirokchilarga oid yangi huquqiy normalar ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, jamiyatning affilangan shaxslari, ular bilan bitimlar tuzish, ushbu bitimlar bo'yicha nizolarni hal etish hamda jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari va jamiyat boshqaruv organlarining fuditsiar javobgarligiga oid yangi huquqiy normalar aks etmoqda.

Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida normalarning yanada aniqlashtirilgani, mavjud huquqiy bo'shliqlar to'ldirilgani hamda loyihada sohaga rivojlangan davlatlarning tajribasini joriy qilishga oid huquqiy normalar aks ettirilgani deputatlar e'tiborida bo'ldi.

Xalq vakillari loyihasida jamiyat kuzatuv

### kengashining qarorlari sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li orqali) qabul qilish tartibi hamda jamiyat boshqaruv organlarining va kuzatuv kengashi majburiyatlariga doir yangi normalar bilan to'ldirilishi jamiyatni boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishini qayd etdi.

Majlisda qonun loyihasi uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Xotin-qizlar va bolalar himoyasi kuchaytiriladi

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlarida majburiy tartibda prokurorning ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan, birlamchi ko'mak xonalari yoki ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hududiy markazlariga joylashtirilgan xotin-qizlar uchun bank kartasini tiklash soddalashtirilyapti.

Muhokama davomida qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgani, deputatlar bergan takliflar chuqur tahlil qilinib, ular asosida hujjat matni yanada takomillashtirilgani qayd etildi.

Deputatlar aytishicha, ushbu hujjat tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlari manzilli va samarali ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirish, ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, ularning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Moliyaviy firibgarliklarning oldi olinadi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan to'lov xizmatlarini ko'rsatish jarayonida operatsion, likvidlik, kredit va kiberhujum tavakkalchiliklarning paydo bo'lish holatlari ko'p uchrashmoqda. Yetarli darajada tashkil etilmagan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi aholing naqd pulsiz to'lov vositalariga bo'lgan ishonchining kamayishiga olib kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, raqamli to'lov xizmatlarini

taqdim etishda ijtimoiy injiniring va kibernetika bilan bog'liq tavakkalchiliklar turi ortib borayotgani sababli barcha to'lov tizimi operatorlari zimmasiga tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini joriy etish va Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talablarga muvofiq bo'lishini ta'minlash yuklatilmoqda.

To'lov tashkilotlari to'lov faoliyatining ko'lamiga ko'ra ikki toifaga ajratilib, "muhim to'lov tashkiloti" tushunchasi kiritilyapti.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan berilgan qator takliflar e'tiborga olingani va ularning aksariyati hujjat matnida o'z ifodasini topganligini qayd etildi.

Majlisda qonun loyihasi uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash miqdorlari belgilanmoqda

Ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash va uning davomiyligini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ish beruvchilar va xodimlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan ish vaqtidan tashqari ishning bir kunda birinchi ikki soati uchun kamida bir yarim hissa miqdorida, ikki soatdan ortiq qismi uchun kamida ikki hissa miqdorida (mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarida – har bir soati uchun kamida ikki hissa miqdorida) haq to'lanishi belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasi fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari ta'minlanishiga, tashkilotlarda ish unumdorligini oshirish va xodimlarning daromadlari ko'payishiga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

### Muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyati oshiriladi

Majlisda muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan 1 ta kodeks hamda 3 ta qonunga muvofiqlikni baholash organlari mas'uliyatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini tegishli talablarga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan savdodan chaqirib olishni rag'batlantirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, qo'llanishi majburiy bo'lgan standartlar talablariga javob bermaydigan mahsulotning kamida yetmish foizini qonunchilikda belgilangan tartibda chaqirib olgan yuridik shaxslar moliyaviy sanksiyalardan ozod qilinishi belgilanyapti.

Shuningdek, muvofiqlikni baholash qoidalari buzish natijasida fuqaroning hayoti va sog'ligiga zarar yetkazilgan

taqdirda, yetkazilgan zararining o'rnini qoplashda muvofiqlikni baholash organi tovarni (ishni, xizmatni) sotuvchi, tayyorlovchi (ijrochi) bilan birga solidar javobgar bo'lishini nazarda tutuvchi normalar kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan barcha takliflar ishchi guruh a'zolari, huquqshunoslar ishtirokida chuqur tahlil qilinib, ularning asosli deb topilgan hujjat matnida aks ettirilgani va loyiha har tomonlama maromiga yetkazilgani qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

### Qanday masalalar e'tirozlarga sabab bo'ldi?

Deputatlar hakamlik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Mamlakatimizda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda nizolarni hakamlik sudlarida hal qilish mexanizmining joriy etilgani alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, bahillar hakamlik sudlari faoliyatini tashkil qilishning qonuniy asoslarini va ular tomonidan qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirish, hakamlik sudlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish, hakamlik sudlari faoliyati hamda hakamlik muhokamasini xalqaro standartlarga moslashtirish lozimligini taqozo etmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hakamlik bitimi taraflari bo'lishi mumkin emasligi belgilanmoqda.

Hakamlik sudlari tomonidan yer bilan bog'liq, bino-inshoatlarga egalik huquqini belgilash hamda byudjetdan pul undirish bilan bog'liq nizolar hal etilmasligini qat'iy belgilash, byudjet intizomini mustahkamlash, mas'ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish nazarda tutilyapti.

Majlisda muhokama qilingan qonun loyihasi qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Saydullo Azimov qonungacha kiritilayotgan o'zgartirishlar amaldagi ayrim qonun normalari bilan ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligiga e'tibor qaratdi. Deputatning ta'kidlashicha, loyiha 3-moddasi – "Asosiy tushunchalar" qismida doimiy faoliyat to'g'risidagi kodeksga 1759-modda kiritilmoqda, u qonunga xilof ravishda hakamlik sudlarini tashkil etish uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Ammo bu yangilik amaldagi 239-modda bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Ushbu muddada nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishdagi tartibbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan. Agar hakamlik sudlari

NNT sifatida tan olinsa, ular mazkur modda subyektiga aylanib, bir xil qilmish uchun bir vaqtda ikki xil modda bo'yicha javobgarlik yuklatilishi xavfi yuzaga keladi. Bundan tashqari, 239-moddada NNT faoliyati bo'yicha belgilangan tartiblar va javobgarlik holatlari hakamlik sudlarining huquqiy tabiati va amaliyotiga to'liq mos tushmasligi mumkin. Shu sababli bu normalar amaldagi nomenklatura bilan muvofiqsizlikni bartaraf etish uchun qonun loyihasini qayta ko'rib chiqish zarur. Shunday ekan, har bir o'zgarishni chuqur o'ylab, xalq manfaati va qonunlar bir-biriga mos bo'lishiga e'tibor berish kerak.

O'zLiDeP fraksiyasining yana bir a'zosi Dilmurod Arifov qonun loyihasidagi normalar amaldagi qonunchilikka muvofiqlik nuqtayi nazaridan fikr bildirib, kiritilayotgan ayrim o'zgartirishlar takrorlash bo'lib qolmayapti degan savol bilan qonun tashabbuskorlariga yuzlandi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Shuhrat Yakubov qonun loyihasining konsepsiyasiga e'tibor qaratib, hakamlik sudlari demokratik institut ekani, taklif etilayotgan o'zgartirishlarga ko'ra ularni faqatgina nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan tashkil etilishi va uning huzurida faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutilayotganini, bu esa ayrim cheklolarga sabab bo'lmaydimi, deya qonun tashabbuskorlaridan izoh so'radi.

Qonun tashabbuskorlari deputatlar tomonidan berilgan savollarga atroficha javob berdi.

Savol-javoblardan so'ng ushbu hujjatni yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar bildirildi va qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

### Sud mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligi ta'minlanadi

Majlisda "Sudning mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligini ta'minlash choralarini yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Mazkur qonun loyihasi bilan sud binosida sudga hurmatsizlik qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini, shuningdek, sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun javobgarlik choralarini aniqlashtirish nazarda tutilmoqda.

Sud ishlarini hal etishga aralashish, ya'ni muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rib chiqishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarilishiga erishish maqsadida sudya yoki xalq maslahatchisiga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator aniqlashtiruvchi savollar, taklif va tavsiyalar o'rtaga tashlandi. Jumladan, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Xushvaqt Hayitov loyiha bilan surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazishda javobgarlik kuchaytirilayotganini ta'kidlab, ekspertlar, ya'ni ekspertiza o'tkazishda ishning xolisligini ta'minlash maqsadida ekspertlarning mustaqilligi masalasi loyihasida qay tarzda himoya qilingani bilan qiziqdi.

Qonun tashabbuskorlari berilgan savollarga atroficha javob berishdi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

### Inson salomatligi – ustuvor vazifa

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Aholining sanitariya-

epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi hamda "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, uzluksiz to'qson kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan o'n sakkiz yoshdan oltmish yoshgacha bo'lgan mamlakatimiz fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublikamizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni majburiy ravishda O'IVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish belgilanmoqda.

Shuningdek, uzluksiz to'qson kun va undan ortiq muddatda chet elda bo'lib qaytgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va respublikamizda doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'IVga majburiy tibbiy tekshiruvdan Davlat yuqurtibbiy mablag'larini hisobidan, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari esa o'z mablag'larini, ish beruvchining yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan majburiy tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi nazarda tutilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati va zaruratiga e'tibor qaratib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga bir qator savollar berdi. Jumladan, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Shannoza Xolmahmatova qonun loyihasida belgilanayotgan uzluksiz to'qson kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan o'n sakkiz yoshdan oltmish yoshgacha bo'lgan fuqarolarni majburiy ravishda O'IVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish masalasiga e'tibor qaratib, nima sababdan muddat va yosh bilan bog'liq chegaralar ko'zda tutilayotgani bilan qiziqdi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

### Vazirga parlament so'rovi yuborildi

Deputatlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A. Abdurahimovga "Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish hamda chiqindi poligonlarini yopish va rekultivatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, xususan, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish hamda chiqindi poligonlarini yopish va rekultivatsiya qilish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentimizning sohaga oid qator Farmon va qarorlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, elektromobillar keng ommalashib borayotgani nuqtayi nazardan kelgusida ularning akkumulyatorlari yaroqlik muddati tugagandan so'ng yoki turli sabablarga ko'ra ishdan chiqqanda saqlashni tashkil etish hamda ulatizatsiya qilish masalalari kun tartibiga chiqmoqda.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish hamda chiqindi poligonlarini yopish va rekultivatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziriga parlament so'rovi yuborildi.

"Xalq so'zi".

## O'zbekiston madaniyati va turizm salohiyati Polshada namoyish etildi.

<p><b>Xalq so'zi</b> <b>Narodnoe slovo</b></p> <p><b>MUASSISLAR:</b> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi</p> <p>Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.</p> <p><b>TELEFONLAR:</b> Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.</p>	<p><b>Bosh muharrir O'tkir RAHMAT</b></p> <p>2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.</p> <p><b>ISSN 2010-6788</b></p>	<p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifa qaytarilmaydi.</p> <p>Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohbunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.</p> <p>Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.</p> <p>Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.</p>	<p><b>MANZILIMIZ:</b> <b>100066,</b> <b>Toshkent shahri,</b> <b>Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.</b> Navbatchi muharrir X. Norboev. Musahih Sh. Mashrabboev.</p> <p>"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 05.35 Topshirildi — 05.40 <b>1 2 3 4 5 6</b></p>
--	--	---	--